
SPORT — SOG‘LOM HAYOT GAROVI: BOG‘BON MFY DA SPORT MAYDONCHASI BARPO ETILMOQDA

“Besh tashabbus olimpiadasi” ning 2023 - yil 1-mavsumi doirasida sportning stritbol turi bo‘yicha Farg‘ona shahrida qizlar o‘rtasida o‘tkazilgan Respublika bosqichida 16-21 yosh toifasida Bog‘bon MFY yoshlari faxrli 3-o‘rinni egallagan edi.

Shu munosabat bilan ayni kunda mahalla yoshlari uchun 5 - umumta‘lim maktabida “Workout” sport maydonchasi barpo etilmoqda.

Bu, albatta, aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, sportsevarlar sonini ortishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumot o‘rnida, Quvasoy shahrida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida g‘olib va sovrindor bo‘lgan mahallalar yoshlari uchun 5 ta sport maydonchalari to‘liq qurilishi tugatilgan va 3 ta sport maydonchalarida qurilish ishlari davom etmoqda.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-12-04 09:41:53